

HUQUQIY DEMOKRATIK VA FUQAROLIK JAMIYATIDA SUDYALAR DAXLSIZLIGINING O'RNI

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va
advokatura kafedrasi o'qituvchi-yordamchisi

muzaffarovichmuhammadjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17232939>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi sudyalarning daxlsizligi huquqiy va demokratik davlatda qanchalik muhimligi, shuningdek sudyalarning qaror qabul qilishi jarayonida va ular o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida ularga daxlsizlik huquqi naqadar muhim ekanligi haqida muhokama qilingan. Shuningdek, bu borada ba'zi bir muammolar borligi ham ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Sud hokimiyati, sudyalarning daxlsizligi, Sudyalarning Oliy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni.

THE ROLE OF JUDICIAL IMMUNITY IN A DEMOCRATIC AND CIVIL SOCIETY BASED ON THE RULE OF LAW

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar's son

Tashkent State Law University

Assistant Lecturer, Department of Court,
Law Enforcement Agencies and Advocacy

muzaffarovichmuhammadjon@gmail.com

Abstract. This thesis discusses the importance of the immunity of judges in a legal and democratic state, as well as the importance of the right to immunity for judges in the process of decision-making and the implementation of their activities. It is also noted that there are some problems in this regard.

Keywords: Judicial power, immunity of judges, Supreme Council of Judges, Constitution of the Republic of Uzbekistan. Law of the Republic of Uzbekistan "On Courts".

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy poydevori – inson huquq va erkinliklarining kafolatli himoyasidir. Bu himoyaning eng samarali vositasi – mustaqil va adolatli sud hokimiyatidir. Sud hokimiyatining mustaqilligi esa bevosita sudyalarning daxlsizligi instituti orqali ta'minlanadi. Sudyalarning daxlsizligi – ularning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, sud hokimiyatining obro'si va jamiyat ishonchini mustahkamlash uchun zaruriy shartdir.

Demokratiya – bu hokimiyatning xalq irodasiga bo'ysunishi va erkinliklarning kafolatlanishi. Sud hokimiyati demokratik jamiyatda muvozanatning asosiy elementidir. Fuqarolik jamiyati – bu davlat hokimiyatidan mustaqil, lekin u bilan hamkorlik qiluvchi institutlar yig'indisidir (nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik). Fuqarolik jamiyatida sudyalarning daxlsizligi – fuqarolarning sud orqali o'z huquqlarini himoya qilishi uchun ishonchli kafolatdir. Daxlsizlik mavjud bo'lsa, sud qarorlariga jamoatchilik ishonadi, chunki sudyalarning mustaqil va xolis bo'ladi.

Demokratik huquqiy davlatning eng muhim tamoyillaridan biri bu – hokimiyat tarmoqlarining o‘zaro bo‘linishi va ular o‘rtasida muvozanatning ta‘minlanishidir. Sud hokimiyati ana shu tamoyillarning poydevoriy ustunlaridan biri hisoblanadi. Adolatli sudlovni ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda sud hokimiyati mustaqilligi va uning daxlsizligi asosiy kafolatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy davlatda sud hokimiyatining mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Sudya daxlsizligi nafaqat ularning shaxsiy manfaatlarini, balki jamiyatda adolatli sudlovni ta‘minlash uchun ham zarur bo‘lgan huquqiy mexanizmdir.

Nazariy jihatdan, sudyalarning daxlsizligi - sud hokimiyatining mustaqilligini ta‘minlovchi konstitutsiyaviy institutdir. U sudyaning o‘z vazifalarini siyosiy bosim va noqonuniy aralashuvlarsiz bajarish uchun yaratilgan huquqiy kafolatdir. Daxlsizlik sudyaga imtiyoz emas, balki jamiyatda huquq va adolatning ustuvorligini ta‘minlash vositasi sifatida berilgan. Sud hokimiyatining mustaqilligi – bu uning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan ajratilganligi, o‘z faoliyatini faqat qonun asosida yuritishi demakdir. Agar sudya daxlsizligi ta‘minlanmasa, sud hokimiyatining mustaqilligi ham real bo‘lmaydi. Demak, daxlsizlik – bu sud mustaqilligining huquqiy kafolatidir. Huquqiy davlatda sud hokimiyati inson huquqlarining asosiy kafili bo‘lib xizmat qiladi. Inson huquqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri sud orqali himoya qilinadi. Shu sababli, sudyaning daxlsizligi bevosita fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan uzviy bog‘liqdir.

Sudyalarning daxlsizligining huquqiy kafolatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada sudyalarning daxlsizligi, ularning roziligisiz javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi ta‘kidlangan. Bundan tashqari “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra sudyaning daxlsizligi, javobgarlikka tortish tartibi, moddiy va ijtimoiy kafollari aniq belgilangan. Shuningdek, ushbu qonun hujjatlariga ko‘ra sudyani hibsga olish, tintuv o‘tkazish yoki jinoiy javobgarlikka tortish faqat Oliy sud Kengashining roziligi bilan amalga oshirilishi ta‘kidlangan, sudya o‘z vazifalarini bajarayotganda ularning daxlsizligi to‘liq kafolatlanishi ham yoritilgan, bundan tashqari sudya o‘z qarorlarini qabul qilishda mustaqilligi va sudyalarning ish yuritishi davomida ularga nisbatan hech qanday bosim o‘tkazish mumkin emasligi ham ta‘kidlangan.

Sudyalarning daxlsizligi nima uchun kerak degan savolga javob beradigan bo‘lsak, avvalo sudyalarning qarorlarni mustaqil qabul qilishi uchun, shuningdek, bu institut orqali sud tizimiga ishonch ortadi. Hamda sud hokimiyati boshqa hokimiyatlardan mustaqil bo‘lib, demokratik jamiyatda muvozanatni saqlaydi. Bundan tashqari, ba‘zi hollarda sudyalarning daxlsizligi noto‘g‘ri talqin qilinib, javobgarlikdan qochish vositasi sifatida ham ishlatilishi ham mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan “Sud-huquq tizimi islohotlari” doirasida sudyalarning daxlsizligi yanada mustahkamlanmoqda. Xususan, Oliy Sud Kengashining faoliyati, sudyalarning tanlovi va ularning faoliyatiga oid tartiblar shaffoflashmoqda.